

## GAZDAN XAVFLI ISHLARNI XAVFSIZ OLIB BORISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10026589>

**Rasulev A.X**

*dotsent*

(Toshkent davlat texnika universiteti)

**Baxtiyarova M.A**

*19-23 guruh talabasi*

(Toshkent davlat texnika universiteti)

### **Annotasiya**

*Ushbu maqolada texnika xavfsizligi ishlarini to'g'ri tashkil etish, xavfli gaz ishlarini bajarishda xavfsizlik choralar, ularni bartaraf etish to'g'risida ma'lumot berilgan.*

### **Kalit so'zlar**

*xavfsizlik, gaz quvurlari, texnika xavfsizligi, xavfli binolar, gaz quvurlari*

### **Аннотация**

В данной статье приведены сведения о правильной организации работ по технической безопасности, технике безопасности при производстве работ с опасными газами и их устранении.

### **Ключевые слова**

*безопасность, газопроводы, техническая безопасность, опасные сооружения, газопроводы*

### **Abstract**

*This article provides information on the proper organization of technical safety work, safety measures in the performance of hazardous gas work, and their elimination.*

### **Key words**

*safety, gas pipelines, technical safety, dangerous buildings, gas pipelines*

O'zbekiston iqtisodiyotida muhim o'ringa ega bo'lgan neft-gaz tarmog'ida bugun soha faoliyatini zamon talabi darajasida tashkil etish uchun bir qator investisiya loyihalari amalga oshirilmoqda. «Aholini suyultirilgan gaz bilan ta'minlash, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini yanada ko'paytirish maqsadida 2017-2020 yillarda amalga oshirishga mo'ljallangan Muborak gazni qayta ishlash zavodida propan-butan aralashmasini olish qurilmasining 1-, 2-, 3-tarmoqlarini modernizasiya qilish, 4-tarmoqni qurish» investisiya loyihasi shular jumlasidandir. 28 avgust kuni Muborak gazni qayta ishlash zavodida ana shu

loyihani ishga tushirish marosimi bo'lib o'tdi. Zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish hisobiga tabiiy gazni chuqur qayta ishlashni ta'minlash, "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" unitar-sho'ba korxonasida suyultirilgan gaz ishlab chiqarishni ko'paytirish maqsadida:

1. Ma'lumot uchun qabul qilinsinki, cheklangan qiymati 221,56 mln. AQSH dollarini tashkil qilgan "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" unitar-sho'ba korxonasida suyultirilgan gaz ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun propan-butan aralashmasi moslamasini qurish" loyihasining dastlabki texnik-iqtisodiy asosi belgilangan tartibda ishlab chiqilgan va tasdiqlangan, unga muvofiq:

kriogen texnologiyalar va turbodetander agregatlarni qo'llagan holda propan-butan aralashmasini chiqarib olish bo'yicha uchta moslama;

tabiiy gazni tozalash va tseolit quritish moslamalari;

turbodetander agregatlarda zarur bosimni ta'minlash uchun siqish kompressor stansiyasi;

zavodni energiya bilan ta'minlash moslamalari kompleksi, shuningdek suyultirilgan gaz va kondensatning qo'shimcha hajmlarini saqlash va yuklab jo'natish uchun mahsulotni quyish va hisobga olish bo'yicha eng zamonaviy avtomatlashtirilgan uskunalar bilan jihozlangan yangi temiryo'l shoxobchasiga yaqin park qurilishi ta'minlanadi. Loyihani amalga oshirish natijasida har yili xalqaro standartlarga mos 11,79 mlrd. kub. m. tovarbop tabiiy gaz, 270,0 ming tonna suyultirilgan gaz va 70,0 ming tonna gaz kondensati ishlab chiqarishni ta'minlash nazarda tutilgan [1].

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investisiyalar va savdo vazirligi, "O'zbekneftgaz" MXKning mazkur investisiya loyihasini amalga oshirish uchun "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" unitar-sho'ba korxonasi bilan pudratchi sifatida ishtirok etuvchi "Stroytransgaz" OAJ (Rossiya) o'rtaida ustav fondidagi ulushi teng (50%dan) bo'lgan qo'shma korxona tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin. Bunda tomonlar qabul qilgan o'zaro majburiyatlarini bajarganlaridan so'ng qo'shma korxonani tugatish, ob'yeqtini "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" unitar-sho'ba korxonasiga to'liq mulk sifatida topshirish nazarda tutilgan. Gaz quvurlarini tamirlash va ulardan foydalanish bilan bog'lik bo'lgan va gaz qurilmalarining o'rnatilishi kabi barcha ishlarga havfli gaz ishlari kiradi. Shuning uchun ham bunday ishlarni amalga oshirishda ehtiyyotkorlik talab etadi. Xavfli gaz ishlariga shahar gaz tarmoqlaridan foydalanishda bajarila-digan ishlarni barchasi kiradi. Bundan tashqari gaz quvurlarini amaldagi gaz tarmoqlariga ulanishi, gazning chiqishni bartaraf etish, amalda foydalanib kelinayotgan gaz quvurlarini, (produvka) havo yordamida

tozalash armaturalar va uskunalar bilan jixozlash, gaz quduqlarida bajariladigan ishlar, GBSH lari joylashgan binolardagi barcha ishlar havfli gaz ishlariga kiradi. Xavfli gaz ishlarini bajarishda eng kamida ikki kishi tomonidan bajariladi. Javobgarligi yuqori bo'lgan xavfli gaz ishlarini bajarishda rahbarlikni olib borish muhandis-texnik xodimlarga yuklatiladi. Ishchilar va muhandis-texnik xodimlar alohida tartibda maxsus tayyorgarlik va mashqlardan o'tishi kerak. Xavfli gaz ishlari bajarilayot-gan joylar to'siq bilan o'ralib qo'riqlanadi. Bunday joylarda chekish va olov yondirishlar qatiyan man etiladi. Gaz chiqishi paydo bo'lgan joylarda protivogaz kiyish kerak. Foydalanayotgan protivogazning ko'rinishi bajarilayotgan ishning turiga bog'liqdir. Bajarilayotgan ish kotlovanlar va gaz quduqlarida bo'lganda shlangli protivagazlarning qo'llanilishi, bino ichida bajarilayotgan holatda ximoyalangan protivogazlardan foydalanish kerak. Gaz quduqlari va kotlovanlarda xavfli gaz ishlarini bajarilayotgan ishchilar ipga bog'langan belbog' kiyishi ip uchi esa tashqariga chiqarilgan bajarilayotgan ishni kuzatuvchining qo'lida bo'lishi kerak. Gaz quvurlari payvandlash ishlarini tarmog'dagi gazni o'chirmasdan ham amalga oshirish mumkin, qachonki gazning bosimi 1200 Pa dan yuqori bo'limganda, havo oqimi bilan gazni qaytarib turuvchi, uskunalar bilan jihozlangan maxsus brigada tomonidan amalga oshiriladi. Gaz quvurlarida gaz oqimi berkitilgan, lekin quvurning ichida gaz bo'lgan oraliqlarida gazni to'lik quvurdan siqib chiqarmasdan turib, payvandlash ishlarini bajarish qatiyan man etiladi. Gaz armaturalarining zinch bog'langanligini faqat sovun eritmasi surtilib tekshirish mumkin, bunday holatlarda olov yoqib tekshiruvdan o'tkazish qatiyan man etiladi. O'ta qiyin xavfli gaz ishlarini bajarish, ishlab chiqilgan maxsus reja asosida bajariladi. Gaz quduqlarida va kotlovanlardagi (payvandlash, kesish) olovli ishlar, alohida ko'rsatma bo'yicha, qo'shimcha xavfsizlik ta'minlanish etiborga olgan holda bajariladi. Gaz quvurlarida ta'mirlash ishlarini bajarishda gazning yopilishi va qayta ochilishi ishlarida, gaz istemolchilari o'z vaqtida ogohlantirilgan bo'lishi, extiyotkorlik xavsizligi bilan ta'minlangan bo'lishi kerakdir. Gaz bilan ishlovchi har-bir xodim gazdan zarar ko'rganga zaharlangan-ga birinchi yordam ko'rsatishni bilishi kerak [2].

Texnika xavfsizligi ishlarini tashkil etish. Aholi turar joy binolari va umum jamoa binolarida gazdan foydalanishda xavfsizlikni ta'minlash uchun «Gazdan xavfsiz foydalanish qoidalari»ga qattiq rioya qilinishi kerak. Qoidaga zid bo'lgan har qanday holatda va maxsus ko'rsatma bo'yicha, gaz xizmatini olib boruvchi rahbar javobgar hisoblandi, chilangar - gazchi brigada xizmatining majburiyatiga qo'yidagilar kiradi.

Gaz chiqqan joyni aniqlash va uni sozlash.

Gazlangan va gaz xavfli binolarda ish bajarish.

Uskunalar va qurilmalarga saqlagichlar va ximoyalananuvchini qo'llash.

Zararlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish.

Gaz yoqilg'isiga bog'liqholatda bo'lgan baxtsizlik va nosozlik ishlarini tekshiruvga qatnashishi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki xavfli gaz ishlarini bajarishda va gaz chiqayotgan joyni aniqlashda baxtsiz holatning oldini olish uchun texnika Xavfsizligi ishlarini tashkil etuvchi tashkilot bo'lishi kerak. Gaz chiqayotgan joyni aniqlashdan oldin, gazning hidi bo'yicha binolarning gazlanganligi darajasi holatini gaz analizatori yordamida aniqlash bekitish va gazning chiqish joyini sozlash kerak. Gaz quvurlaridan gaz oqimining chiqishi miqdori ko'p bo'lganda yoki gaz uskunalari, jixozlaridan ham gazning chiqishi ko'p miqdorda bo'lganda «nosozlikni tuzatish xizmati»ga (avariynuyu slujbu) xabar berish kerak. Shahar gaz xizmatida sutkaning istalgan vaqtida nasozlikni tuzatish ishlarini bartaraf etish kerak [3].

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Кравсов А.В., Ушева Н.В., Мойзес О.Е., Кузьменко Е.А., Ануфриева О.В. Анализ влияния технологических параметров и оптимизация процессов низкотемпературной сепарации // Известия Томского политехнического университета. 2009. Т. 315. №3. -С.57-60.
2. Central Asian Journal of Theoretical and Applied Sciences ( ISSN: 2660-5317 ) <https://cajotas.centralasianstudies.org/index.php/CAJOTAS>. Types and Applications of Corrosion-Resistant Metals
3. Ланчаков Г.А., Кульков А.Н., Зиберт Г.К. Технологические процессы подготовки природного газа и методы расчета оборудования. -М.: Недра-Бизнесцентр, 2000. – 279 с.
4. Technical solutions to protect people in high-rise buildings from damaging factors EUROPEAN JOURNAL OF LIFE SAFETY AND STABILITY (EJLSS)  
ISSN 2660-9630 [www.ejlss.indexedresearch.org](http://www.ejlss.indexedresearch.org)